

O'zbekiston – Misr hamkorligida yangi bosqich boshlanmoqda



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Misr Arab Respublikasi Prezidenti Abdulfattoh Said Husayn Xalil as-Sisi 4-5 sentyabr kunlari rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo'ldi.

Tashrifning asosiy tadbirlari 5 sentyabr kuni Ko'ksaroy qarorgohida bo'lib o'tdi.

Rasmiy kutib olish marosimidan so'ng Shavkat Mirziyoyev va Abdulfattoh as-Sisi tor doirada uchrashuv o'tkazdi.

Davlatimiz rahbari oliy martabali mehmonni qutlab, ushbu tashrif mamlakatlarimiz o'rtasidagi aloqalarda tarixiy voqea ekanini ta'kidladi.

– Biz Misrni qadimiy sivilizatsiya beshigi, boy tarix va yuksak salohiyatga ega mamlakat deb bilamiz. Xalqlarimizning madaniy yaqinligi juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Ota-bobolarimiz birgalikda ilm-fanni rivojlantirgan, madaniy hamkorlik, savdo-sotiq qilgan. Bunga tarixda misollar juda ko'p. Bugun O'zbekiston – Misr hamkorligida yangi bosqich, amaliy ishlar davri boshlanmoqda, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

– Avvalo, O'zbekistonga taklifingiz uchun tashakkur izhor qilmoqchiman, – dedi Abdulfattoh as-Sisi. – Mamlakatingizga kelgan ilk daqiqalardan o'zimni yurtimdagidek his qildim. Misr xalqi mamlakatimiz bilan ming yillik mushtarak tarixga ega O'zbekiston va uning xalqini g'oyat hurmat qiladi. O'ylaymanki, bu tashrif nafaqat o'zaro hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi, balki barcha sohalarda ulkan yuksalishlarga turtki beradi. Biz munosabatlarimizni har tomonlama rivojlantirish tarafdorimiz.

O'zbekiston va Misrni, garchi oradagi masofa uzoq bo'lsa-da, tarixiy-madaniy mushtaraklik, an'anaviy do'stlik va yaqin hamkorlik birlashtirib turadi. Misr Prezidentining mamlakatimizga ilk tashrifi ana shu azaliy aloqalarni bugungi zamon talablaridan kelib chiqqan holda, yangi asosda ravnaq toptirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Mamlakatlarimiz Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti va boshqa xalqaro tuzilmalar doirasida hamkorlikni yanada faollashtirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Jumladan, Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashining 2016 yil oktyabr oyida Toshkentda o'tgan 43-sessiyasida Misr delegatsiyasi ishtirok etdi. Ushbu mamlakat yetakchi ekspertlari yurtimizdagi saylovlarda kuzatuvchi sifatida

muntazam qatnashib kelmoqda.

Mintaqaviy va global masalalarga yondashuvlar ham o'xshash yoki yaqin. O'zbekiston va Misr Afg'onistonda faqat ushbu mamlakat xalqi tomonidan tinchlik o'rnatish jarayonlari amalga oshirilishi tarafdoridir.

Afg'onistonda mustahkam tinchlik va barqarorlik o'rnatish yo'lidagi sa'y-harakatlarni birlashtirish, bu masalalar bo'yicha tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida muntazam ravishda siyosiy maslahatlashuvlar o'tkazib borishga kelishib olindi.

Prezidentlar xavfsizlik muammolariga alohida e'tibor qaratdilar. Terrorizm, ekstremizm, noqonuniy migratsiya, giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasi, transmilliy uyushgan jinoyatchilik va boshqa tahdidlarga qarshi kurashish borasidagi hamkorlikka doir masalalarni atroflicha muhokama qildilar.

O'zbekiston va Misr Prezidentlarining kengaytirilgan tarkibdagi muzokarasida savdo-sotiq va investitsiya sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirish, shu maqsadda mamlakatlarimiz imkoniyatlaridan keng va samarali foydalanish masalalari muhokama markazida bo'ldi.

Iqtisodiy hamkorlik davlatlararo munosabatlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ikki mamlakat o'rtasida savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va tovar ayirboshlash hajmini oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni davom ettirish zarur. Muzokaralarda ta'kidlanganidek, savdo hajmini yaqin yillarda bir necha barobar oshirish uchun har ikki tomonda foydalanilmayotgan ulkan imkoniyatlar mavjud.

O'zbekiston Misrga uning bozorida talab yuqori bo'lgan elektrotexnika, mashinasozlik, metallurgiya, kimyo va neft-kimyo, yengil sanoat, oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi va boshqa mahsulotlarni eksport qilishi mumkin. Misrda esa mamlakatimizga dori-darmon, tibbiyot jihozlari, gilamlar, mebellar, neft-kimyo mahsulotlari, marmar, chinni, teri va plastik mahsulotlarni eksport qilish imkoniyatlari yuqori.

Ikki davlat mas'ul idoralariga savdo aylanmasiga qulay shart-sharoit yaratish, tovar ayirboshlash tuzilmasini to'liq diversifikatsiya qilish va uning hajmini kengaytirish bo'yicha topshiriqlar berildi. Qishloq xo'jaligi sohasida ilmiy izlanishlar natijalari va ilg'or tajribani almashishga kelishib olindi. Ishbilarmon doiralar vakillarining O'zbekiston va Misrda o'tkaziladigan ko'rgazma-yarmarkalarda ishtirok etishi rag'batlantiriladi.

Misr Prezidentining tashrifi doirasida o'tgan O'zbekiston – Misr biznes-forumi ana shu muloqotlarning uzviy davomi bo'ldi. Ushbu forumda umumiy qiymati 400 million dollardan ziyod shartnomalar imzolandi. Bu ham iqtisodiy sohada ulkan imkoniyat va resurslar borligidan dalolatdir.

Mamlakatlarimiz qadimda Buyuk ipak yo'lining asosiy tarmoqlari bo'lgan. Bugungi kunda tashqi bozorlarga tez va samarali chiqishni ta'minlovchi transport va tranzit yo'laklarini rivojlantirish davlatlarimiz o'rtasida savdo hajmini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'rinda xalqaro suv yo'lagi sifatida Suvaysh kanalining ahamiyati beqiyos. Suvaysh kanalidagi iqtisodiy zona O'zbekiston mahsulotlarini jahon bozoriga olib chiqishni yengillashtirishda qulay imkoniyat yaratadi.

O'zaro savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalarni kengaytirishda hududlararo hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Muzokarada Namangan va Iskandariya viloyatlari o'rtasida bevosita hamkorlik o'rnatish, yaqin kunlarda ushbu viloyat delegatsiyasining yurtimizgatashrifini tashkil qilishga kelishib olindi.

Misr turizm sohasida katta salohiyat va tajribaga ega mamlakat. Bugungi kunda O'zbekistonda ham ushbu tarmoq jadal rivojlanmoqda. Muzokarada bu sohadagi aloqalarni kengaytirish, O'zbekistondagi qadimiy shaharlar va muqaddas qadamjolarini ziyorat qilish uchun Misrlik sayyohlarni ko'paytirish mumkinligi qayd etildi. Toshkent, Qohira va Xurgada o'rtasida aviaqatnovlarni yo'lga qo'yish masalasi muhokama qilindi.

Movarounnahr va Misr diyorida yashab ijod qilgan ulug' bobokalonlarimizning noyob ilmiy-ma'rifiy merosi butun musulmon olamining bebaho boyligidir. Bu o'rinda buyuk ajdodimiz Ahmad Farg'oniyning Misrda yashab, o'lmas kashfiyotlar qilgani, jumladan, Nil daryosi suvini o'lchaydigan inshoot – "Miqyosi Nil"ni yaratgani bugungi avlodlarga yuksak iftixor bag'ishlaydi. Qohira shahrida, buyuk Nil bo'yida Ahmad Farg'oniyni bobomizga o'rnatilgan muhtasham haykal bugun xalqlarimiz o'rtasidagi azaliy do'stlikning yorqin ramziga aylangan.

Madaniy-gumanitar sohadagi hamkorlik bo'yicha ham ijobiy natijalarga erishildi. Misrning Al-Azhar universiteti va boshqa ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan O'zbekiston xalqaro Islom akademiyasi, Imom Buxoriy nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi va Islom sivilizatsiyasi markazi o'rtasida faol hamkorlik o'rnatishga kelishib olindi.

Muzokarada xalqlarimizning ma'naviy yaqinligini inobatga olib, qo'shma madaniy tadbirlarni ko'paytirish, ayni paytda, ta'lim, ilm-fan, sog'liqni saqlash, sayyohlik, madaniyat, sport va boshqa sohalarda o'zaro aloqalarni mustahkamlash masalalari muhokama qilindi.

Muzokaralar yakunida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Misr Arab Respublikasi Prezidenti Abdulfattoh as-Sisining Qo'shma bayonoti qabul qilindi.

Mamlakatlarimiz o'rtasida yoshlar, sport, investitsiya, qishloq xo'jaligi sohasida hamkorlik to'g'risida Anglashuv memorandumlari, ta'lim, turizm, arxeologiya, madaniy

meros va muzeyshunoslik sohalarida hamkorlikni rivojlantirishga doir bitimlar, ikki mamlakat tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida 2019-2020 yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturi va adliya vazirliklari o'rtasida hamkorlik memorandumini singari jami 12 hujjat imzolandi.

Ommaviy axborot vositalari vakillari bilan uchrashuvda Prezidentlar muloqotlar ochiq, do'stona va amaliy ruhda o'tganini, hamkorlikni rivojlantirishga doir keng qamrovli masalalar muhokama etilganini ta'kidladilar. Imzolangan hujjatlar O'zbekiston va Misrning uzoq muddatli manfaatlariga, mamlakatlarimizni rivojlantirish va xalqlarimiz farovonligini oshirishga xizmat qilishini qayd etdilar.

– Misr Prezidentining O'zbekistonga tashrifi mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlarda tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi, – dedi Shavkat Mirziyoyev. – Biz ikki tomonlama munosabatlarga doir hamda xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik masalalar yuzasidan atroflicha fikr almashdik. Ishonchim komilki, ushbu kelishuvlar O'zbekiston bilan Misr o'rtasidagi munosabatlarni sifat va mazmun jihatidan boyitib, o'zaro manfaatli hamkorligimizni yangi, yuqori bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi.

– O'zaro samimiy muloqot va Misr delegatsiyasiga ko'rsatilgan mehmondo'stlik uchun O'zbekiston Prezidenti va xalqiga minnatdorlik izhor qilaman, – dedi Abdulfattoh as-Sisi. – Bugun imzolangan hujjatlar yaqin kelajakda mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamkorlik ko'lamini kengaytirish va jadallashtirishga xizmat qiladi. Ushbu kelishuvlar mamlakatlarimiz va xalqlarimizning bir-biriga mushtarak intilishlari samarasidir.

Abdulfattoh as-Sisi Shavkat Mirziyoyevni rasmiy tashrif bilan Misrga taklif qildi.

Shu bilan Misr Arab Respublikasi Prezidentining mamlakatimizga rasmiy tashrifi nihoyasiga yetdi.

O'ZA